Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasи assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada G'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy – uslubiy va amalii asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** G'allachilik klasteri, buxgalteriya hisobi, hisob siyosati, hisob registrlari, hisob shakllari, buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakl, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi.

**Abstract:** This article provides suggestions and recommendations for improving the theoretical, methodological and practical foundations of organizing accounting in grain clusters.

**Key words:** Grain cluster, accounting, accounting policy, accounting registers, accounting forms, simplified accounting form, automated control system.

**Аннотация:** В данной статье даны предложения и рекомендации по совершенствованию теоретических, методических и практических основ организации учета в зерновых кластерах.

**Ключевые слова:** Зерновой кластер, бухгалтерский учет, учетная политика, регистры учета, формы учета, упрощенная форма учета, автоматизированная система управления.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyotni mutlaq yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilish bo'yicha qator qonuniy va me'yoriy hujjatlar, puxta o'ylangan dasturlar qabul qilinib, ular izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, mam-lakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va uni barqarorlashtirishda g'allachilik klasterlarining tutgan o'rni hamda yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Shu boisdan, "Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida:gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.09.2019-yildagi 806-sun qarori e'lom qilindi. Ushbu qarorda klasterlarining Xususan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klastser usuli yo'lga qo'yildi, klasterlarga ajaratilgan qishloq xo'jaligi maydonlarining hajmi ekin turlari bo'yicha paxta-to'qimachilikda 62 foizni, chorvachilikda 8 foizni, meva-sabzavotchilikda 7,5 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, zamonaviy resurs tejaydigan texnologiyalarning joriy etilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan yer, suv va moddiy-tehnik resurslardan samarali foydalanish, yetishtirilgan xomashyoni qayta ishlagan holda tayyor mahsulot ko'rinishida iste'molchiga yetkazib berish imkonini bermoqda. Natijada joriy yilda boshqoli don yetishtirishda gektaridan o'ttacha 60 sentnerdan hosil olinib, yalpi ishlab chiqarish hajmi 7 mln tonnadan ortiqni tashkil etdi hamda davlatga 3 mln 552 ming tonna don topshirilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 140 foizga oshganligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmoni 2023-yil 11-sentabrdagi 158-soni Farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'nnaviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish,adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash ko'rsatilgan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish bir gektardan olinadigan o'ttacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish. Qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish. Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jaib qilish.



Qo'shimcha 300 ming hektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali o'zlashirish va mazkur yerdagi ozuqabop, dorivor, moyli, dukkanakli, sholi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish.

Shu munosabat bilan yuqorida Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida respublikamizda G'allachilik klasterlariga ulkan vazifalar qo'yildi. Ushbu masalani ijobiylar hal etishda nafaqat uning tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish, balki ulardagagi mavjud mol-mulkdan samarali foydalanish va uni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazoratni amalga oshirish buxgalteriya hisobi tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda, g'allachilik klasterlarining rivojlanishi ko'p jihatdan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga, kredit va boshqa ta'minot tashkilotlarining xizmat ko'rsatish darajasiga hamda g'allachilik klasterlarida hisob yuritish tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir. Shu boisdan, bugungi kunda fermer xo'jaliklarining hisob tizimi holati va uni takomillashtirishdagi mavjud muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili g'allachilik klasterlariga boshchilik qiluvchi tadbirkor buxgalteriya hisobini yuritish shaklini mustaqil tanlashga haqli. Buxgalteriya hisobini yuritish shaklini tanlashda quyidagi omillar hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir:

- g'allachilik klasterining hajmi (katta-kichikligi);
- uning joylashuvi va ixtisoslashuvi;
- g'allachilik klasterida ishlovchi yollanma xodimlar soni;
- g'allachilik klasterlari boshliqlarining buxgalteriya hisobi hamda boshqa iqtisodiy, huquqiy-texnologik masalalar bo'yicha tayyorgarlik darajasi va boshqalar.

Bugungi raqamlari iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishi g'allachilik klaster uchun buxgalteriya hisobining shakli, uning mazmuniga, faoliyatning barcha jarayonlarini boshqarishning axborot ta'minotiga mos kelishi lozim. G'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobining rivojlanishi joylarda progressiv yo'l bilan emas, balki sust, evolyusion-kechikish yo'l bilan kechmoqda, chunki ilmiy va o'quv adabiyotlarda ushbu muammolarga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Bunda, hisob yuritishning rivojlanish jarayonini tadqiq etish va g'allachilik klasterlarida uni takomillashtirishning uslubiy qoidalarini tadqiq etish zaruratini belgilab beradi. Buxgalteriya hisobining evolyusiyasi, odatda, mazmun va shaklning mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Ushbu tushunchalar qadimiy ildizlarga ega bo'lib, tarixiy kategoriyalar sifatida esa bir necha ma'noni anglatadi. Shuning uchun "mazmun" va "shakl" tushunchalariga aniq va yakuniy ta'rifni berish oson emas. Buxgalteriya hisobining rivojlanishi bilan ushbu tushunchalarga aniqliklar kiritildi.

Masalan, A.M.Galagan shunday yozgan edi: "...hisobshunoslikda shakl deb ularning tashqi ko'rinishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladigan yozuvlar yig'indisiga aytildi" Barry Elliot, Jamie Elliotlarning ta'kidlashlaricha: "...buxgalteriya hisobining shakli deganda turli xildagi hisob registrlarining uyg'unlashuvini, hisob yozuvlarini amalga oshirish usullari va uning izchilligini tushunish lozim". Boshqa mualliflar o'z ilmiy tadqiqot ishlarida buxgalteriya hisobining shakliga ta'rif berishda, hisob registrlaridan tashqari, sintetik va analitik hisob yuritishning o'zaro bog'liqligi yoki salnomaviy va muntazam yozuvlar haqida to'xtalib o'tishgan. Tarix nuqtayi nazaridan, buxgalteriya hisobining shakllari boshqaruv tizimida axborotni umumlashtirish va undan foydalanish uchun eng optimal variantni qidirib topish yoki yaratish maqsadida doimiy ravishda takomillashtirilib borilgan. Shuning uchun buxgalteriya hisobi shakli tushunchasining yangidan yangi yoki to'ldiruvchi ta'riflari paydo bo'lgan. S.Zinchenkoning fikricha, hisoblash texnikasidan foydalanish "buxgalteriya hisobining shakli" tushunchasini siqib chiqarishi mumkin emas, chunki shaklsiz mazmun va mazmunsiz shakl bo'lishi mumkin emas. Ular buxgalteriya hisobini tashkil qiluvchi turlicha, lekin uzviy bog'langan (uslubiy, tashkiliy va texnik) jihatlarni ifodalaydi. "Mazmun" va "shakl" – dialektik tushunchalardir. Ularning yaxlitligi shunda o'z ifodasini topadiki, buxgalteriya hisobining ma'lum mazmuni ma'lum shaklga "aylanadi". "Mazmun shaklga keltirilgan, shakl esa mazmunga ega".

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida avtomat boshqaruv tizimidan (ABT) foydalanish an'anaviy hisob registrlari majmuini qo'llash zaruratinini istisno etmaydi, chunki hisob yuritish shakli – bu boshlang'ich hujjatlar va hisobotlar o'rtasida turuvchi vosita. Lekin avtomat boshqaruv tizimini qo'llash boshlang'ich ma'lumotlarni qayta ishslash, ularni sintetik va analitik hisobda aks ettirish, hisobotlarni taqdim etish usuli va shakllarini istisno etmaydi, balki ularni takomillashtiradi. Bu borada iqtisodchi olim Z.V.Kiryanovaning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli "...buxgalteriya hisobi shaklining talqini qanchalik o'zgarmas, shakllarning o'zları qanchalik bir butun holatga keltirilmasin, ularning mohiyati bitta, u qo'llaniladigan hisob yuritish texnika vositalarining xususiyatiga va ularni buxgalteriya hisobi xodimlarning mehnati bilan birlashtirish usullariga bog'liq emas". Axborotni qayta ishslash va taqdim etish usullari, elementlar tarkibi va bog'liqligi o'zgarmasdan qolmaydi. Ular ishlab chiqarishni tashkil etishning rivojlanishi, boshqaruv tuzilmasining takomillashtuvchi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) da EHMning (elektron hisoblash mashinalari) yangi avlodlarining qo'llanilishi, axborotni qayta ishslashni loyihalashtirish usullarining takomillashtuviga qarab rivojlanadi va buxgalteriya hisobining yangi shakllari paydo bo'lishiga yoki mavjud hisob yuritish shakllarining takomillashtuviga, yangilanishiga olib keladi. Hisob yuritishning avtomatlashtirilgan shakli ham o'zgarishsiz qolishi mumkin emas, chunki dasturlash rivojlanishining



hozirgi sharoitida ma'lumotlarni qayta ishlash va buxgalteriya hisobi shakllarini modifikatsiyalashning ko'plab variantlarini nazarda tutuvchi turli buxgalteriya hisobining dasturiy ta'minot mahsulotlari mayjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada g'allachilik klasterlari buxgalteriya hisobi shakllarini optimallashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda buxgalteriya hisobi mazmunidagi o'zgarishlar uning rivojlanishini ustuvor tomoni hisoblanadi. Bu, bir tomondan, tadbirkorlik subyektlari o'ttasida tegishli mazmundagi buxgalteriya axborotini talab qiluvchi yangi xo'jalik aloqalari va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan, ikkinchi tomondan esa, tashkilotlar va ularning segmentlarini boshqarish uchun to'liq, tezkor hamda foydali axborotga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir. Buxgalteriya hisobining ayrim shakllari (memorial order, kitob-order, soddalashtirilgan va h.k..) tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan mazmunga mos kelmayapti va nafaqat keyingi rivojlanish, balki boshqaruv funksiyalari sifatida ushbu tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ham to'siq bo'lmoqda. Shuning uchun buxgalteriya hisobining qulay va samarali shakllarini tanlash buxgalteriya hisobini rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xususan, g'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda, hisob yuritish siyosatini tanlashda buxgalteriya hisobi shaklining amaliy ahamiyatini yetarlicha baholamaslik axborot tizimidagi uzilishlarga olib kelish bilan birga hisob yuritish oldiga qo'yilgan vazifalarning hal etilishiga to'sqinlik qiladi. Natijada, hisob yuritishning bunday shakli samarasiz ishlashning davomiyligini ta'minlashga olib keladi. Buxgalteriya xodimlarining amaliy faoliyati sifatida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qoidalar jumlasiga qonunlar, yo'rqnoma malar me'yorlar, standart qoidalar, shuningdek, maxsus qoidalar, an'analar va hatto buxgalteriya faoliyatining odatlari ham kiradi. Ta'kidlash joizki, hamma iqtisodiy (reja, hisob, tartibga soluvchi) axborot ham buxgalteriya hisobining mazmunini tashkil qilmaydi, bundan tashqari, hamma axborot ham boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalanilmaydi.

Fikrimizcha, buxgalteriya hisobining mazmuni, uning aks ettiriladigan moliyaviy xo'jalik faoliyatining haqidagi ma'lumotlari vaqt va makonda bog'liqligi belgililarini ifodalovchi, subyektning xo'jalik jarayonlarini boshqarish uchun muayyan xususiyatlarga ega bo'lgan axborotlar yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin. Ushbu axborot o'z ichki va tashqi foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondirishi kerak. Shuning uchun buxgalteriya hisobini uslubiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish asosida axborotga bo'lgan muayyan ehtiyojlarining tahlili yotishi kerak. Ichki va tashqi foydalanuvchilar (ayniqsa sarmoyadorlar, kreditorlar va soliq organlari) ning axborotga bo'lgan o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish buxgalteriya hisobi funksiyalari va uning oldiga qo'yilgan vazifalar (strategik maqsad) ning bajarilishini talab qiladi. Faqat buxgalteriya hisobining barcha funksiyalari, texnologiyalari va mexanizmlarini rivojlantirish, ularni amalga oshirish yo'li bilan buxgalteriya hisobining oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish hamda uning maqsadini amalga oshirish orqali ichki va tashqi foydalanuvchilar tomonidan axborotdan samarali foydalanilishi mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda, hisob yuritish tartibi, ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlari, buxgalteriya hisobi shakli va registrlari, axborotni taqdim etish usuli va shakllari, uni olish muddatlari belgilanishi (tanlanishi) mumkin, bu ko'p jihatdan hisob yuritishning tanlangan shakliga bog'liqdir. Fikrimizcha, buxgalteriya hisobining shakli – bu o'zaro bog'liq tarkibiy elementlar (registrlar, schyotlar) yig'indisi, boshlang'ich ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni ro'yxatga olish va buxgalteriya hisobotiga aylantirish tartib-qoidalaringin yig'indisi bilan aniqlanigan xo'jalik faoliyati haqiqatdagi ma'lumotlari to'g'risidagi axborotni tashkil etish, ifodalash (aks ettirish), to'plash hamda boshqaruv uchun saqlash usulidir. Tadqiqot jarayonida biz hisob yuritish shakliga nisbatan qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- hisob yuritish mazmunini tashkil etish;
- buxgalteriya hisobi tizimini progressiv rivojlantirish;
- izchillik va oqilonalik;
- xo'jalik yurituvchi subyektning xo'jalik jarayonlari to'g'risidagi zarur axborotni olish uchun buxgalteriya xizmatlari ishining tejamkorligi va sifatliligi.

Buxgalteriya hisobining rivojlanishi jarayonida harakatlar izchilligi (rivojlanish texnologiyasi) va elementlarning o'zaro ta'siri (rivojlanish mexanizmi) usuli muhim rol o'ynaydi. Buxgalteriya hisobining shakli va mazmunini rivojlantirish jarayonlarida ushbu jihatlarni hisobga olish lozim. Hisob yuritish shakli uning mazmunitan ajralmas bo'lsa-da, lekin hisoblash texnikasi hamda hisob yuritish mazmuniy fragmentlarini shakllashirish va modellashtirish metodologiyasi rivojlanishining hozirgi sharoitida u nisbiy mustaqillikka ega bo'lishi




mumkin. Bugungi kunda buxgalteriya hisobida belgilar, raqamlar, formulalar, modellarni tuzish va ularni o'zgartirishning aniq qoidalariga bo'yusungan bilimlarni shakllashtirish (modellashtirish, dasturlash, sun'iy belgi yoki formula) usuli muvaffaqiyatlari qo'llanilmogda.

O'zgartirishlarning tezkorligi, ularni aniq matematik va mantiqiy qoidalarga bo'yusundirish imkoniyati, bilish vazifalarining shakl darajasida muvaffaqiyatli yechilishini ta'minlaydi va buxgalteriya hisobida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) dan yanada keng foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga shakllashtirish teskari jarayon, belgi, formula va boshqa "formalizmni" talqin etish, ya'ni mazmuniga izoh berish bilan to'ldirilishi lozim. Aks holda amaliyotda ko'pincha buxgalteriya hisobi shakllarini zaiflashtirish, asossiz soddashtirish yoki hisob yuritishni avtomatlashtirish uchun yagona metodologik yondashuvdan bebahra qolgan, hisob yuritishning oldida turgan vazifalarni, uning belgilangan funksiyalarini, asosiy tamoyillarini, unga nisbatan qo'yiladigan taxminlar va talablarni hisobga olmaydigan ko'p sonli dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish yo'li bilan ularni murakkablashtirish tendensiyasi namoyon bo'ladi.

Natijada, buxgalteriya hisobining shakli o'z mazmunini tashkil etish, ifodalash va uning mavjud bo'lishi vositalaridan birdan bir maqsadga aylanadi. Fikrimizcha, buxgalteriya hisobini takomillashtirishda buxgalteriya hisobining shakli va mazmunini rivojlantirishning dialektik yagonaligidan kelib chiqish maqsadga muvoqiqidir (1-rasm). 1-rasmdan ko'rib turganimizdek, xo'jalik faoliyatining barcha turlarini boshqarish maqsadida G'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobini ular oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etadigan va belgilangan asosiy funksiyalarini bajaradigan darajada loyihalashtirishni tashkil etish zarur. Tadqiqot natijasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushu maqsadga buxgalteriya hisobining shakli va mazmunini rivojlantirishning yagonaligini, uning barcha bo'g'inlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash yo'li bilan erishiladi. Buxgalteriya hisobining uslubiy asoslaridan foydalanish G'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobini yuritishni tashkil etishga nisbatan yalpi yondashuvni ta'minlaydi, aks holda umuman buxgalteriya hisobiga zarurat bo'lmaydi.

### Hisob yuritishning strategik tahlili



**1-rasm:** G'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobi tizimining asosiy unsurlari faoliyat ko'rsatishi konseptual modeli

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining buxgalteriya hisobida buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo'llash yoki qo'llamaslik masalasi ham bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammo bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda qarama-qarshi fikrlar mavjud. Har bir muallif o'zi tomonidan modifikatsiyalangan buxgalteriya hisobi registrlarini va agrar tadbirkorlikda buxgalteriya hisobini yuritish amaliyotida qo'llash uchun uning tuzilishi shaklini taklif etgan. 1-rasmdan ko'rib turganimizdek, xo'jalik faoliyatining barcha turlarini boshqarish maqsadida G'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobini ular oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etadigan va belgilangan asosiy funksiyalarini bajaradigan darajada loyihalashtirish va tashkil etish zarur.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahliillar natijasida shunday xulosaga keldikki, hisob registrlari va buxgalteriya hisobining schyotlar tizimini hisob yuritishning turli shakllaridan, shu jumladan, soddalashtirilgan shaklidan optimal darajada, lekin zaruratga qarab foydalanish, shuningdek, G'allachilik klasterlarining hajmini, faoliyat va xo'jalik jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oлган holda soddalashtirilgan schyotlar rejasidan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, mazkur xo'jalik subyekt xodimlarining buxgalteriya hisobi bo'yicha tayyorgarlik darajasini ham hisobga olish lozim.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bir yoki bir necha turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan g'allachilik klasterlarda buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli bo'yicha yuritishlari mumkin. Bunday hisob yuritishning asosini daromad va xarajatlarni hisobga olish kitoblarida "tan olish tamoyili" bo'yicha yuritish lozim. Bunda har bir xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya hisobini yuritish, uni tashkil etishda mustaqil hisob siyosatini ishlab chiqishlari va unda tanlangan shakllar, usullar hamda tamoyillar belgilab olinishi lozim.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, g'allachilik klasterlari faoliyatida sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlari buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklidan, shuningdek, tegishli hisob registrlarda va buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasida yuritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017-yildagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF4947-sonli Farmoni.
3. Yuldashev S., & Ishturdiyev H. (2023). Qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
4. АбдигаппаровиЧ И. Х., & Юлдашев Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. SO 'NGI ILMYI TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 361-368.
5. Abdigapparovich I. X. (2024). QISHLOQ XO'JALIGIDA MASHINA-TRAKTOR PARKLARI XIZMATLARINING AHAMIYATI. WORLD OF SCIENCE, 7(2), 105-113.
6. Abdigapparovich I. X. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI TAYYORLOV VA SOTISH XIZMATLARINI BOSHQARISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(2), 148-157.
7. Baxtiyorovna U. O. (2024). RAQAMLASHTIRISHNING TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(2), 177-182.
8. Tashmuratovich E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20-28.
9. Эшмурадов У. Т. (2022). СОТИШ ВА РЕАЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ, УЛАРНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАЛҚИНИ. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 861-867.
10. Ixtiyorovich Q. A., Shavkat o'g'li I. R., & Tashmuratovich E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.
11. Olimjanovna J. D., & Tashmuratovich E. U. (2024). CONCEPT AND ACCOUNTING OF CAPITAL INVESTMENTS IN AGRICULTURAL CLUSTERS. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 188-188.
12. ESHMURADOV U. T., & ALIKULOV A. I. (2014). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF SALES AGRICULTURAL PRODUCTS ON FARM ENTERPRISES. SEA: Practical Application of Science, 2(3).
13. Baxodirovich T. J., & Ismatovich A. A. (2023). IMPROVING THE ACCOUNT OF FINANCIAL RESULTS ACCORDING TO INTERNATIONAL StandartS. MASTERS, 1(1), 138-143.
14. Rabbimovna R. U., Baxtiyorovna N. G., & Muxammadkulovna, Y. D. (2024). AGROKLASTERLarda TOVAR-MODDIY QIYMATLIKlar HISOBi VA AUDITINI TAKOMILKASHTIRISH. WORLD OF SCIENCE, 7(3), 140-146.



# Yashi

IQTISODIYOT  
Va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027  
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.